




БҮЮК ИПАК ЙЎЛИДА
УМУМИНСОНИЙ ВА МИЛЛИЙ
ҚАДРИЯТЛАР:
ТИЛ, ТАЪЛИМ ВА МАДАНИЯТ




GLOBAL AND NATIONAL VALUES
ALONG GREAT SILK ROAD:
LANGUAGE, EDUCATION AND CULTURE

伟大丝绸之路上的普世价值观与民族价值观：
语言、文化和教育 学术研讨会



ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
САМАРҚАНД - ШАНХАЙ
2020

PROCEEDINGS
OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE
SAMARQAND - SHANGHAI
2020



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

САМАРҚАНД ДАВЛАТ ЧЕТ ТИЛЛАР ИНСТИТУТИ

SAMARKAND STATE INSTITUTE OF FOREIGN LANGUAGES

САМАРҚАНД КОНФУЦИЙ ИНСТИТУТИ

SAMARKAND CONFICIUS INSTITUTE

**БУЮК ИПАК ЙЎЛИДА УМУМИНСОНИЙ ВА
МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР: ТИЛ, ТАЪЛИМ ВА
МАДАНИЯТ**

**GLOBAL AND NATIONAL VALUES ALONG
GREAT SILK ROAD: LANGUAGE, EDUCATION
AND CULTURE**

**ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

Самарқанд, 2020 йил 9-10 октябрь

**PROCEEDINGS
OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE**

Samarkand, 9-10 October 2020



Самарқанд-Шанхай, 2020
Samarkand-Shanghai, 2020

УЎК 4И(075)
КБК 81.2 (03)
Б 90

БУЮК ИПАК ЙЎЛИДА УМУМИНСОНИЙ ВА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР: ТИЛ, ТАЪЛИМ ВА МАДАНИЯТ. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. Самарқанд: СамДЧТИ, 2020. 542 бет.

Тўпلامда Самарқанд давлат чет тиллар институти ва Шанхай чет тиллар университети ҳамкорлигида ўтказилган “Буюк Ипак Йўлида умуминсоний ва миллий қадриятлар: тил, таълим ва маданият” деб номланган халқаро конференцияда иштирок этган таниқли олимлар, ёш тадқиқотчиларнинг маърузалари жамланган. Ундан ўрин олган маърузалар ўзбек, хитой, араб, турк, инглиз ва рус тилларида бўлгани каби, мавзу доираси ҳам анча кенг ва хилма-хилдир. Хусусан, Буюк ипак йўли мамлакатлари тили ва адабиётининг назарий масалалари, таржимашунослик, маданият ва тарих, таълим-тарбия назарияси, хорижий тиллар ўқитиши методикаси, манбашунослик каби соҳаларга оид долзарб масалалар ёритилган.

Тўпلام тил ва адабиёт назарияси, таржимашунослик, маданият ва тарих, таълим - тарбия назариялари, тиллар ўқитиши методикаси, манбашунослик соҳаларида илмий изланиши олиб бораётган мутахассислар, тадқиқотчилар ва магистрларга мўлжалланган.

Тахрир хайъати

И.М.Тухтасинов (раис),
Ш.С.Ашуров (раис ўринбосари),
Ф.Ш.Рўзиқулов (масъул муҳаррир),
Ш.С.Сафаров (масъул муҳаррир),
С.Н.Бекниязова (масъул муҳаррир),
Занг Йинг (Конфуций институти директори)

И.Ё.Бекназарова (масъул котиб)

Editorial board

Tukhtasinov I.M. (chairman),
Ashurov Sh.S. (vice chairman),
Ruziqulov F.Sh. (chief editor),
Safarov Sh.S. (chief editor),
Bekniyazova S.N. (chief editor),
Zang Ying (director of Confucius
Institute),
Beknazarova I.
(executive secretary)

ISBN 978-9943-5193-5-0

Doi confernce 10.26739/conf10.10.2020

Тўпلامдан ўрин олган мақолаларнинг савияси, сифати ва илмий далилларнинг ҳаққонийлиги ҳамда мазмуни учун муаллифлар масъулдирлар.

марта ўйламаслик” маъноси келиб чиқади. Лекин биз уни ўзбек тилидаги “бошқа ўйламаслик, унутиши” вариантлари билан ҳам алмаштириш мумкин.

Биз инглизча ФБларни ўзбек тилига талқин қилганда сўзма-сўз мос келиш ҳолатларини кўп ҳолларда мақолларда учратамиз. Масалан, “*misfortunes never comes alone*” мақолини “бахтсизлик ҳеч қачон ёлғиз келмайди” деб талқин қилиш мумкин. Бу иборани халқимиз кўпинча “бахтсизлик бир келса қўша келади” тарзида ишлатади. Бу мақол замирида қанчалик ҳақиқат борлиги бизга маълум бўлмасда, халқимиз бунга ишонади.

Тадқиқотимиз жараёнида инкор маъно ифодаловчи сўзлардан *without* сўзидан ҳам кўп мартаба фразеологик ибораларни ҳосил қилишда ва таҳлил қилишда фойдаландик. Шунини айтиш керакки, бу сўз иштирокидаги иборалар ҳам маъно жиҳатдан икки тилда сўзма-сўз мос келиши ҳолатлари кўп учрайди. Масалан: *without many words* – *оптиқча сўзсиз*; *without respect* – *эътиборга олмасдан*; *without a gap* — *бир чақасиз*.

Яна инкор маъно ифодаловчи сўзлардан *out of* - бирикмаси иштирокидаги ибораларнинг таржимасида кўпчилик ҳолларда сўзма-сўз мос келишини айтиш керак. Сўзимиз далили сифатида “*a word out of season*” иборасини мисол қилиб келтирамиз. Бу иборани ўзбек тилига “ўз вақтида айтилмаган сўз, ёки ўринсиз маслаҳат” тарзида келтиришимиз мумкин. *Out of* -бирикмаси иштирокидаги бошқа мисоларни келтирамиз: *out of the ordinary* – *гайриоддий*; *out of place* – *ўринсиз*; *out of order* – *бетартиб*; *out of the question* – *гап бўлиши мумкин эмас*; *out of the wood* – *хавфдан холи*.

Инкор компонентларни семантик жиҳатдан таҳлил қилишда инкор компонентлар ўзбек тилига талқин қилинганда, маъно жиҳатдан мос келишини кўрдик. Хулоса тариқасида шунини таъкидлаш керакки, инглизча инкор компонентлар иштирокидаги ФБлар ўзбек тилига талқин қилинганда, уларда қуйидагича лексик-семантик хусусиятлар яққол кўзга ташланиши мумкин экан. Хусусан, бундай ибораларни лексик – семантик жиҳатдан икки катта гуруҳга ажратиш лозимдир, яъни:

1. Иборанинг сўзма-сўз маъноси ва фразеологик маъноси ўзаро боғлиқ бўлган ФБлар.

2. Иборанинг сўзма-сўз маъноси ва фразеологик маъноси қисман фарқ қиладиган ФБлар.

Умуман олганда, ФБлар икки тилда ҳам, бир-бирига ҳар томонлама яқин. Ибораларни ўрганиш жараёнида уларнинг ўзбек тилидаги вариантларидан унумли фойдаланиш алоҳида аҳамият касб этади. Чунки, ҳар қандай тилни ўрганишда икки тилни қиёслаб ўрганиш самарали натижаларга олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- 1.Амосова Н.Н. «Основы английского фразеологии» Л. ЛГУ, 1963г. -С.208.
- 2.Кунин А.В. «Курс фразеологии современного английского языка» М. В.Ш, 1986г. - С.335.
- 3.Мюллер В.К. «Англо- русский словарь» Москва- 1969г. –С.912.
- 4.Рахматуллаев.Ш «Ўзбек тилининг фразеологик лугати» Тошкент-1992й. б.378

LINGVISTIK AREAL VA UNING TIPLARI TALQINIGA DOIR

Ashirbaev Samixan
(Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O'zbek tili va adabiyoti universiteti
professori, f. f.d.)

Annotation: *Areal linguistics is an underdeveloped field in the Republic of Uzbekistan. Of course, much work has been done on linguistic geography as part of it. In this regard, A. B. Juraev's theoretical research is important. There is a need for research on the nationalization of applied linguistic concepts in world linguistics and its application. In this sense, this article*

explores the concept of linguistic area (territory) from the scientific literature and information system and discusses its application to Uzbek area linguistics.

Key words and expressions: *area linguistics, linguistic geography, area, region, isogloss, homogenic, heterogeneous, types and types of areas.*

Areal lingvistika O'zbekiston Respublikasida endigina rivojlantirilmoqda. Areal lingvistika termini dunyo amaliyotida keng qo'llansa-da, u o'zbek tilshunosligida dastlab A. Jo'raevning tadqiqotida nazariy talqinini topgan [Джуряев 1991]. Ungacha bo'lgan davrda va undan keyin ham A. Shermatov, Q. Muhammadjonov, Y. Ibrohimov, N. Murodova, Z. Ibrohimovalar lingvistik geografiya termini ostida areal tadqiqotlar olib bordilar va ko'proq bu tadqiqotlarda o'zbek shevalarining ayrim hududlaridagi izoglossalarning tarqalishi kartalashtirildi. Ayni zamonda areal tadqiqotlar ham paydo bo'ldi [Муродова, Рахмонов 2017:148; Дарвешов 2019:148]. Areal lingvistika haqidagi ma'lumotlar o'zbek dialektologiyasiga oid darsliklarda ham yoritila boshlandi [Ashirboyev 2016: 76-84; Муродова 2019:126-134]. Bu ishlarda areal lingvistika dialektologiyaning bevosita davomi sifatida yoritildi. Bu fikrga, haqiqatan ham, areal lingvistikaning dialektologiya negizida yuzaga kelganligi [Qarang: Гаджиева 1975: 6], axborot tizimlarida uning lingvistik geografiya deb yuritilishi asos bo'ldi.

Ma'lumki, areal lingvistikada urg'u beriladigan asosiy tushuncha areal (hudud), to'g'rirog'i, lingvistik arealdir. Albatta, bu tushuncha uning lotincha terminida o'z ma'nosini topgan, ya'ni *area* so'zi hudud, maydon, joy degan ma'noni anglatgan. *Area* so'zi sifat yasovchi -l qo'shimchasi bilan birga qo'llanishi natijasida u endilikda lingvistika fanining bir yo'nalishini ifoda qiladi va areal lingvistikada areal tarzida qo'llanib (otlashib), taksonlarning, izoglossalarning joylashish hududini anglatadigan tushunchaga aylandi. Ushbu maqolada ana shu tushunchaning areal lingvistikada rivojlantirilishini o'zbek tili faktlari asosida talqin qilishga harakat qilamiz.

Area termini hudud degan ma'noni anglatasa ham, uning areal lingvistikada o'z ma'nosi bor. O'zbek va rus tillarida u **areal** ko'rinishida qo'llanadi. Areal tushunchasi quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1) areal so'zi *til va dialektlarning turli hududlarda tarqalishini* anglatadi. Boshqacha aytganda, tilning yoki shevaning tarqalish o'rnini bildiradi. Masalan, ingliz tili turli qit'alarga tarqalgan, o'zbek lahjalari o'zbeklar massivining turli hududlarini egallagan, jumladan, o'g'uz lahjasiga oid shevalar Janubiy Qozog'iston, Forish, Qorako'l, Olot, Xorazm, Qoraqalpog'istonda muayyan hududlarni egallagan. Areal tushunchasi faqat til va dialektlarning emas, balki konkret bir izoglossaning tarqalishini, uning harakat yo'llarini, joylashgan o'rnini ham anglatadi, jumladan, "a"lashish Toshkent, Farg'ona vodiysida alohida-alohida hududni egallagan. Demak, areal (hudud) tushunchasida tarqalish ma'nosi yetakchidir;

2) areal so'zi *til va dialektlarning makon va vaqt birligi* tushunchasini anglatadi. Bu til va shevalarning tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liqdir. U yoki bu til va uning shevasi turli tarixiy davrlarda makonlarini almashtirishi mumkin, Masalan, turkiy xalqlardan bo'lgan qadimgi madyorlar (majorlar) hozirgi Volga daryosining quyi oqimlarida yashaganlar. Eramizning 830 yillarida ular quyi Dunay bo'ylariga migratsiya bo'ladilar. Tili esa slavyan tillari ta'siriga uchraydi va (gibrid) vengr tili bo'lib shakllanadi [www. World-history.ru]. Madyorlarning tili to'g'risida gap ketganida, o'sha 830 yilgacha bo'lgan davr va quyi Volga bo'yi hududida tarqalganligi to'g'risida fikr yuritiladi. Tillar tarixida bunday o'lchov muhim rol o'ynaydi. Makon va vaqt birligi tushunchasini shevalarga nisbatan ham qo'llash mumkin. Qadimgi turkiy urug'-qabilalardan biri bo'lgan arg'ular Qozog'iston Respublikasining Taroz viloyati atrofida yashaganlar va ularning shevasi qarluq va chigil shevalariga yaqin bo'lgan. Keyinchalik ular qipchoqlar tarkibiga qo'shib ketgan va hozirgi turkiy tillardan qozoq, qirg'iz, tatar, boshqird tillari tarkibidagi urug'larga aylangan. Demak, arg'ular shevasi to'g'risida gap ketganida XI-XII asrlardagi holati bo'yicha fikr yuritilishi kerak bo'ladi. Bu urug'-qabilalar shevasi to'g'risida M. Koshg'ariyning ayrim ma'lumotlaridan boshqa jiddiy axborotlar yo'q.

3) areal so'zi *til va shevalar ittifoqi* tushunchalarini ifoda qiladi. Til va shevalar ittifoqi lingvistik kontaktologiyaning mahsuli ekanligi ma'lum. Til va shevalar ittifoqi tushunchasi N. S. Trubetskoy tomonidan kiritigan [Qarang: Гаджиева 1975: 7]. Har bir til va sheva o'zicha rivojlana

olmaydi, balki unga chegaradosh bo‘lgan til va shevalar bilan aloqada bo‘ladi. Bu jarayon ikki til yoki shevaning chegarasida yuz beradi. O‘zaro ta‘sir doirasidagi bu tillar chegarasida har ikkala til yoki sheva kesishgan joyda oraliq sheva paydo bo‘ladi. Bu lingvistik hodisa til yoki sheva ittifoqi tushunchasini oladi. O‘zbek tilidagi oraliq shevalar maxsus o‘rganilgan [Кудратов 1976:39-45].

4) areal termini *tillar guruhini (oilasini)* ham anglatishi an‘anada bor, ya‘ni bir til oilasining yoki katta til oilasidagi guruhlarning tarqalishini anglatadi. Bunga ko‘ra, katta va kichik areallar haqida gapirish mumkin. Masalan, katta til arealiga Hind-Yevropa til oilasini misol sifatida keltiradigan bo‘lsak, kichik arealiga uning ichki bo‘linishi – roman, german til guruhlari misol bo‘la oladi. Shuningdek, turkiy tillar arealini katta areal, bulg‘or, qarluq, qipchoq guruhlari uning tarkibidagi kichik areal deb qarash mumkin va h.k.

Endi areallarning axborot tizimlarida qayd qilingan tiplariga to‘xtalamlz.

Oddiy areal. Bunday areallar muayyan hududlarga sdirg‘a joylashgan bo‘ladi, ular kuchli tashqi ta‘sirga uchramaydi, balki shu hududda turg‘un bo‘ladi. Bunga kam sonli aholisi bo‘lgan tillar (yaqut, yukagir) va atrofini boshqa til va shevalar o‘rab olgan shevalar taalluqlidir. Afsuski, adabiyotlarda bazi shunday shevalar yo‘qolib ketayotganligi haqida fikrlar uchramoqda. Jumladan, J. Eltazarov shimoliy o‘zbek shevalarining, xususan, u yerdagi o‘g‘uz shevalarining yo‘qolib borayotganligini yozadi [Eltazarov 2013]. Bizningcha, bu fikrda asos yo‘q, chunki u nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham isbotlanmagan. Aksinch J. Eltazarov fikr yuritgan shevalar o‘z mustaqilligini, tabiiyligini saqlab kelmoqda, chunki ularga boshqa til va shevalar sezilarli ta‘sir etmagan. Aslida shevalarning yoqolishi g‘oyasi o‘zbek shevalariga emas, balki hozirgi Yevropaning yirik shahar shevalariga tegishli bo‘lib, u migratsiyaning mahsulidir;

murakkab areal. U bo‘laklarga ajratilishi mumkin bo‘lgan areallardan tashkil topadi. Bu ko‘p jihatdan yuqorida aytilgan katta areal tushunchasi bilan ham bog‘lanadi. Jumladan, turkiy tillar o‘z ichida bo‘laklarga ajraladi, o‘zbek tili ichki lahjalariga nisbatan murakkab arealdir.

keng areal. U katta hudud ichida areallarning to‘siqlarsiz ko‘chib yurishidir. Bunga qozoqlarning ko‘chmanchilik davridagi tili misol bo‘la oladi. Keng arealning boshqa talqini ham bor. Amerikalik lingvist J. Nikols keng (cho‘zilgan) va tor areallarni qayd qiladi. Uningcha, keng (cho‘zilgan) areallar genetik rang-barangligi kam bo‘lgan tekisliklardagi areallardir, unga misol sifatida Yevroosiyo cho‘l zonalarini keltiradi, tor areal esa tog‘lik joylar va okeanlardagi areallar bo‘lib, ularda xilma-xillik kuchli bo‘ladi, unga misol sifatida Kavkaz keltiriladi [https://present5.com].

Shuningdek, areallarning quyidagi turlari to‘g‘risida ham fikr yuritish mumkin:

bo‘lingan areal. Bu muayyan hududdagi til va shevalarning sharoiti o‘zgarishi bilan yuz beradi. Professor E. D. Polivanov Iqon (Qozog‘iston, Turkiston) aholisining bir qismi qachonlardir hozirgi Qorako‘l va Olot tumanlari hududiga ko‘chganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni (sheva vakillari axboroti) keltiradi (to‘g‘ri, bu fakt yana qo‘shimcha o‘rganilishi lozimligini ham uqtiradi) [Поливанов 1929: 527], V. V. Reshetov Markaziy Osiyodagi (Orol bo‘yidagi) qatag‘onlarning Afg‘onistonga ko‘chib ketishi tufayli u yerda qarluq shevalari shakllanganligini aytadi [Решетов,1966:5]. Bo‘lingan arealning ikki turi qayd qilinadi: *gemogen va geterogen*. *Gemogen* areallar o‘z chegarasiga ega bo‘lmagan til va shevalardan iborat bo‘ladi. “O‘z chegarasiga ega bo‘lmagan til va shevalar” tushunchasi o‘zbek tiliga tatbiq etilganida, uning lahjalari ko‘zda tutiladi, ya‘ni lahjalarning dialektlarga va dialektlarning shevalarga bo‘linishi tushuniladi, bunday bo‘linishda aniq chegaralar yo‘qligi ma‘lum. *Geterogen arealda* muayyan til va shevalar chegaradosh til va shevalar bilan aralashadi. Qaysidir tillar qarindosh va qarindosh bo‘lmagan tillar bilan chegadosh bo‘lganligi uchun ham ular zich aloqada bo‘ladi. Natijada kichik bir hudud paydo bo‘ladiki, u boshqa-boshqa tillarning o‘zaro ta‘siri tufayli yuz beradi. Bu kichik hudud oraliq shevani hosil qiladi. Demak, geterogen areal tashqi aloqaning mahsulidan paydo bo‘ladi.

tor local areal. Ular qisqa (kichik) hududga ega bo‘ladi. Bunday areallar, deyarli, yopiq doirada ish ko‘radi. Bunga Uzoq Sharqdagi yukagirlar tilini hamda Buxoro va Samarqand viloyatlaridagi ayrim qishloq o‘g‘uz shevalarini misol sifatida keltirilish mumkin. Ularning tili va shevasi atrof shevalarga ta‘sir eta olmaydi, aksincha, miqdor jihatdan yirik bo‘lgan atrof tillar va shevalar ta‘sirida bo‘ladi;

local areal. Ular nisbatan keng hududga ega bo'ladi. Bunga Qorako'l va Olot o'g'uz shevalarini keltirish mumkin. Bu shevalarning atrofi qarluq, qisman qipchoq va tojik shevalaridir;

subregional areal. Lokal areallardan katta hududlarni qamrab oladi. Ma'lumki, o'g'uz lahjasiga oid shevalar Markaziy Osiyoning katta qismida tarqoq holda joylashgan, lekin Xorazm hududi nisbatan katta hudud hisoblanadi. Demak, Xorazm o'g'uz lahjasining *subregional arealidir*;

regional areal. Bu areal keng hududlarni qamrab oladi, masalan, turkiy tillar areali yoki turkiy tillarning o'g'uz areali;

poliregional areal. Bunda til va dialektlar bir necha qit'alarga tarqalgan bo'ladi. Ingliz, fransuz, ispan, potugal tillari shunday talalarga javob beradi, jumladan, ingliz tili Osiyo, Yevropa, Avstraliya qit'alariga, fransuz tili esa Yevropa, Afrikaga tarqalgan (davlat va milliy til sifatida) va h.k.

kosmopolitik areal. Turli iqlim sharoitlari tufayli til va dialektlarning tarqalishi hududlarini anglatadi. Ma'lumki, o'g'uzlar aslida Qozog'istonning Ile daryolari bo'yida shakllangan, lekin iqlim ularning yashash imkoniyatlarini qiyinlashtirgan, natijada ular g'arb tomon siljishga majbur bo'lgan va tillari ham ular yashagan o'lkalarda faoliyatda bo'lgan;

innovatsion areal (ona areal). Undan bir necha areallar paydo bo'ladi, ularni til oilalari bilan izohlash mumkin. Malumki, til oilalari tillarning bir manbadan tarqalganligi g'oyasiga asoslanadi. Bu fikr innovatsion markaz masalasi bilan ham bog'liq bo'lib, areallarning paydo bo'lish o'rnini bildiradi;

migratsion areal. Til va dialektlarning ko'chishi asosida paydo bo'ladi. Bunga misol turk tili, (ma'lumki, ular Markaziy Osiyodan migratsiya bo'lgan) O'zbekistondan tashqarid qavm bo'lib yashayotgan o'zbeklar tili, o'g'uzlarining Ile daryolari bo'ylaridan to Yevropa chegaralarigacha ko'chib borishi natijasida turkiy tillar o'g'uz guruhining paydo bo'lishi misol bo'la oladi.

vikarizm. Bu tushuncha areologiyada bir tur o'rnida boshqa turlarning paydo bo'lishi tushuniladi. Biologik turlar iqlim bilan bog'liq. Areologiyaga aloqador bu termindan areal lingvistika ham foydalanadi. Tillar va dialektlarda uni ijtimoiy jarayon bilan bog'lab tushuntirish mumkin. Xorazmda turkiylarning qaror topishi bilan bu hududda turkiy (o'zbek) shevalari rivojlanishni boshlagan.

Ko'rinadiki, tilshunoslikda lingvistik areal tushunchasi rang-barang bo'lib, ularni konkret tarixiy davr bilan bog'lab o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro'z, 2016, 150 s.
2. Гаджиева Н.З. Проблемы тюркской ареальной лингвистики. – Москва: Наука, 1975, 304 с.
3. Дарвешов И. Ареал тилшунослик: жанубий-ғарбий Наманган шеваларининг фонетик-фонологик хусусиятлари. –Тошкент: Наврўз, 2019,148 с.
4. Джураев А. Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991, 220 с.
5. Муродова Н. Ўзбек диалектологияси. –Тошкент:Barkamol fayz media, 2019, 180 с.
6. Муродова Н., Рахмонов Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг лингвоареал талқини. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2017, 168 с.
7. Поливанов Е.Д. Образцы не-иранизованных (сингармонистических) говоров узбекского языка // Известия Академии наук...1929.
8. Решетов В.В. Ўзбек шеваларининг классификацияси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1966, - №1.
9. Қудратов Т. Шевалар қандай аралашдилар // Ўзбек тилшунослиги масалалари, Қарши, 1976. 39-45-бет.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Арутюнова Н. Д., Падучева Е. В. Истоки, проблемы и категории прагматики // Новое в зарубежной лингвистике.-М.,1985.-Вып.16.
2. Дадуева Е. А. Общая характеристика каузативных глаголов//Вестник СибГУТИ, №2, 2011.
3. Сусов И. П. Предикат и предикация // Семантика и прагматика синтаксических единств (Межвузовский тематический сборник).-Калинин: КГУ, 1981.
4. Фомичева Е. В. Средства выражения побудительности в английском языке в свете семантики и прагматики//Современные проблемы науки и образования, № 4, 2009.

ВИДЫ ОБРАЩЕНИЙ В СТИХОТВОРЕНИЯХ

А. Ахматовой, Ёвкочева З.М.,
(УзГУМЯ, Докторант)

Annotation. *Addresses as a separate intonational and grammatically independent component of the text attracted the interest of scientists for a long time. Recently, the pragmatic and methodological aspects of address have been investigated. As you know, in many works of art, address is of great importance, since it serves to reveal the inner world of both the characters and the author himself. This article discusses the types of addresses in the works of Anna Akhmatova.*

Key words and expressions: *address, noun, adjective, syntax, function, role, repetition, construction.*

Синтаксическая категория обращения издавна привлекает внимание российских лингвистов, которые отмечают его свойство не вступать в грамматические связи с другими словами в предложении и его особую интонационную оформленность, на письме нашедшую отражение в знаках препинания. Обращение – обособленный интонационно и грамматически самостоятельный компонент предложения или сложного синтаксического целого, служащий для обозначения лица или предмета, являющегося адресатом речи. Обращение обычно не относят к членам предложения и не включают в синтаксическое дерево зависимостей или составляющих. Примеры:

Приду, приду я вновь, мой милый домосед,

С тобою вспоминать беседы прежних лет (Пушкин) [8].

Термин «обращение» известно уже в античных теориях языка и стиля (Квинтилиан, Цицерон, Д.Галикарнаский) и рассматривается как фигура речи, используемая для большей убедительности и украшенности речи [2, с. 3-6].

В трудах М.В. Ломоносова [5], А.Х. Востокова [4] описывается звательный падеж, который в древнерусском языке являлся морфологическим средством выражения синтаксической функции господствующего слова того члена предложения («звательный, показывающий имя предмета, к которому речь обращается» [4, с. 21]. Звательный падеж в грамматике Ф.И. Буслаева получил название «обращение» [3]. Следует отметить, что термин «обращение» появляется впервые в работе Ф.И. Буслаева, однако ученый не дал четкого определения ему: под ним понимался то «звательный падеж», то «звательное слово», то «словозвание», то «вставные члены предложения» [3].

В российском языкознании с XIX века обращение традиционно рассматривается в разделе синтаксиса как «грамматически независимый и интонационно обособленный компонент предложения или более сложного синтаксического целого, обозначающий лицо или предмет, к которому адресована речь» [6, с. 340-341].

Внимание исследователей привлекают такие проблемы, как синтаксический статус и функции обращения, его семантические и структурные типы, т.е. способы выражения, а также степень смысловой нагруженности, типы интонации при обращении, позиция обращения в структуре предложения, связи с остальным составом предложения.